

LUG'ATLARDA GEOGRAFIK JOY NOMLARINING QO'LLANILISHI

Meliqulova Zarina

Ko'charova Nilufar

TerDU, o'zbek filologiyasi fakulteti talabaslari

Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda

Anotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy lug'atlar tarkibidan joy olgan geografik joylarning so'zliklarining hozirgi kundagi muqobili va so'zliklarining leksik - semantik tahlil amalga oshirilgan bo'lib, tahlil qilingan va xulosalar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'atit turk", "Древнетюркская словарь", "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiyya", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Kelur - name", shakliy o'xshashlik, tarnskripsion farqlar.

Keyingi 70 yil davomida O'zbekistonda jo'g'rofiya fani ancha rivojlandi. Jo'g'rofiy lug'atchilik sohasida ham anchagina ishlar qilindi. 1953-yilda o'quvpeddavnashr N. Dilimov, M. Qoriyev, H.H. Hasanov va M. Mirboboyevlarning "Qisqacha ruscha - o'zbekcha geografiya termenlari lug'ati"ni nashr qilindi. 1965-yilda H.H. Hasanovning "Ruscha - o'zbekcha va o'zbekcha - ruscha geografiya termenlari lug'ati" bosilib chiqdi. 1958-yili A.S. Barkonovning "Tabiiy geografiyadan izohli lug'ati"i tarjimai nashr qilindi. 1979-yili S. Qorayev, P.G'ulomov va R. Rahimbekovning "Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati o'zbek tilida nashr etildi. [6.3]

Endi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" (keyingi o'rinlarda qo'llanilishi MK), Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" (keyingi o'rinlarda qo'llanilishi MT), "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiyya" (keyingi o'rinlarda qo'llanilishi AT), "Древнетюркская словарь" (keyingi o'rinlarda qo'llanilishi DTS), "Kelur-name" (keyingi o'rinlarda qo'llanilishi KN) kabi lug'atlardan geografik joy nomlaridan "ariq", "shahar", "qishloq", "bog'" so'zlarining bir nechta farqlarini ko'rib o'tamiz. Bularning turli davrlarda tuzilgan lug'atlar asosida o'xshashlik va farqli tomonlari tahlil qilamiz.

"Ariq" so'zi "At-tuhfatuz" asarida ikki xil "арик" (36a-6), "ірмақ" (36a-5) shaklida qo'llangan. "MK" asarining I jildida ham "арік" (96-bet) shaklida qo'llangan. "KN", "DTS", "MT" asarlarida uchramadi. "Ariq" so'zi davrlar mobaynida leksik va fonetik o'zgarialarga uchramagan. Ammo "AT" asarida ikki xil shaklini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari "qishloq" so'zining ham barcha kitoblarda turli xil shaklini ko'rishimiz mumkin "MK" asarining I jildida "илуш" (94-bet), "KN" asarida esa "қышлақ" (MK II) (432-bet), DTS asarida "qışlaq" (MK II) (54-bet) shaklida qo'llanilgan. "MT", "AT" asarlarida bu so'z uchramadi. Ushbu so'zning davrlar mobaynida leksik va fonetik o'zgarishlarga uchraganini ko'rishimiz mumkin.

Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan so'zlardan yana biri "shahar" so'zi bo'lib, barcha kitoblarda turlicha nomlanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "MK" asarining I jildida "shahar" so'zi "көнд" (329-bet) shaklida nomlangan. "AT" asarida "шар" (35a-7) shaklida qo'llangan. "MT" asarida "shahar" so'zining ikki xil varianti ko'plik va

kichraytirish shakllarini ko'rishimiz mumkin. Ko'pligi "билод" (31-bet), kichraytirish shakli "қасаба"(52-bet) shaharcha shaklini ko'rishimiz mumkin. "KN" va "DTS" asarlarida bu so'zga duch kelmadim. Bundan ko'rinib turibdiki "shahar" so'zi davrlar mobaynida turlicha nomlar bilan atalgan. Buni so'z davrlar mobaynida leksik - semantik o'zgarishlarga uchraganini ko'rishimiz mumkin.

"Bog'" so'zini ko'rib o'tadigan bo'lsak. "MK", "DTS", "KN" asarlarida bu so'zni uchratmadim. "MT" asarida esa bu so'zning uch xil, "павза" (44-bet), "фирдавс" (49-bet), "хадика" (53-bet) kabi shakllarini uchratishimiz mumkin. AT asarida ham bog' so'zining uch xil shakli mavjud bo'lib, bular "бокча" (18b-4), "бував"(189-bet), "буғав"(189-bet) kabi shakllarini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki "bog'" so'zining bir davrda bir necha xil nomlar bilan nomlanganligini va leksik o'zgarishlarga uchraganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda "ariq", "qishloq", "shahar", "bog'" so'zlari turli davrlarda turlicha qo'llanilgan. Ba'zilar bir-biridan fonetik va leksik o'zgarishlarga uchragan. Biz shuni ko'rishimiz mumkinki ba'zilar hozirgi kunda ham shunday qo'llanilmoqda. Georafik joy nomlari mavzusini biz bundan keyin ham bir necha guruhlariga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Bu izlanishlar davomida 5 ta lug'atdan foydalandim. Bular Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asrining I va III jildlaridan jami 93 ta, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridan 19 ta, "Древнетюркская словарь" asaridan 41 ta, "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiyya" asaridan 20 ta, "Келур-наме" asaridan 5 ta geografik joy va joy nomlarini ko'rib chiqdim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'atit turk) – Toshkent. Fanlar Akademiyasi. 1963.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn
3. At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiyya [Turkiy tili (qirchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent. Fan. 1968
4. Мухаммед Якуб Чинги. Келур-наме. Ташкент издательство. Фан. Узбекской ССР.1982.
5. Древнетюркская словарь.– Ленинград: Издательство "наука" Ленинградское делние. 1969
6. P.N. G'ulomov. "Maktab jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati" – Toshkent. "O'qituvchi". 1994.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Madvaliyev A. Lug'at va lug'at turlari haqida. – O'zbek milliy leksikologiyasining dolzarb masalalari mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari to'plami, ToshDO'TAU. – Toshkent, 2017.